

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

KASHTACHILIK SAN'ATINIDA ZAMONAVIY INNOVATSIYALAR

Boltayeva Xalima To`raboyevna,

Urganch davlat universiteti “Pedagogika” fakulteti”

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasida o`qituvchisi

Tel : +998 93 744 81 91

Annotatsiya:

Mazkur maqolada tasviriy san’at darslarida o`quvchilarni kashtachilik san`ati va uning bugungi kundagi rivojlanishida yangi innovatsiyalar bilan tanishtirish to`g`risidagi ma`lumotlar yoritilgan.

Kalit so`zlar: Kashtachilik, o`simliksimon, geometrik, gul naqshlari, do`ppi, ko`ylak, dastro`mol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsi-kavush, xaltacha

Bugun nafaqat ma`naviy, balki moddiy boyliklarimizdagi o`ziga xoslikni ko`z-ko`z qila oluvchi milliy hunarmandchiligimizning barcha qirralari yana dunyo bo`ylab keng suratlarda yoyilib bormoqda. Yog`och o`ymakorligi, haykaltaroshlik, chopondo`zlik, kandakorlik, kosibchilik, zardo`zlik singari xalq amaliy san`ati qatorida kashtachilik ham munosib o`rin egallaydi. Hozirda qadimiy kashtachilik san`atidagi uslub yana tiklanib, zamonaviy innovatsiyalar bilan uyg`unlashgan holda o`z haridorlariga etib boryapti. O`zbek milliy kashtachiligi (kashtao`zlik) amaliy san`atning eng qadimiy turlaridan bo`lib, u xalqning o`z turmushini go`zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan.

Kashtachilik san`ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega bo`lib, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O`zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog`liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan kashtachilik san`atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIIV— XV asrlarga mansub miniaturalar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko`rish mumkin.

Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o`zbek milliy kashta bezaklarini ko`rganini kundaligida yozib koldirgan. 1467 yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniaturasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. O`zbek



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com


kashtalariga nazar solsak, unda Hind, Xitoy, Rus, Afg`on, Qozoq, Qirg`iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublari uchramiz.

Chunonchi o`zbek kashtalarida o`simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko`p bo`lsa, rus kashtachiligida geometrik, o`simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko`p tasvirlanadi. Qozoq va qirg`iz kashtachiligida esa ko`prok hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.


O`rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo`lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo`lgan (2-rasm). Shuning uchun har bir oila o`zi uchun kirpech, so`zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o`zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko`p masalan, so`zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choy xalta, zardevor, palak, gulko`rpa, dorpech, bug`joma, parda, belbog`, takyapush (yostiq ustiga yopiladigan), do`ppi, ko`ylak, dastro`mol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O`tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo`ldi.

Zardevor — uy jihozi, u sidirga shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum (3-rasm). Zardevor o`zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo`yiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bo`lib, eni 40—70 sm, uzunligi mo`ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi. (3-rasm). Kashtachilik o`zbek xalqining yuksak badiiy didga ega ekanligini ko`rsatuvchi omil hisoblanib, unda o`lkamizning go`zal tabiati o`z aksini topgan.

O`zbek xalqining kashtachiligida kashtaning badiiy ta`sirchanligi uning chokiga qarab belgilanib keng tarqalgan bosma, yorma choklarida bo`yoq mavjlarida ko`zga tashlanadi. O`zbek xalqining qadimiy, an`anaviy kashtachiligi to`g`risida



(2-rasm). Kashtachi ayollar



3-rasm. Zardevor.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

gap ketganda oltin, kumush, zar bilan tikilgan buyumlar majmuasi ko`z oldimizga kelishi tayin. Zardo`zlik buyumlarida chokning bo`rtib turishi buyumga alohida xusn bag`ishlaydi. Kashtachilik ming xil xususiyatga ega bo`lib, u turmushning barcha jabhalarini o`z ichiga qamrab oladi. Milliy matolarimizda aks etgan gullar, tasvirlar o`zbek ayolining ko`ngil kechinmalaridan, orzu-armonlaridan so`zlaydi. Teranroq nazar solsangiz, har bir tasvirda chuqur ma`no bor. Demak, barcha-barchasi o`z zaminimizda vujudga keladi. Bugungi kunga kelib esa, kashtachilik san`ati nafaqat san`at asari balki, o`zbekona milliy kiyimlarimizda ham o`z aksini topmoqdaki, bunday bejirim va o`ta nozik did bilan zamonaviy inovatsiyalar bilan uyg`unlashgan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarimiz nafaqat hamyurtlarimizni, balki chet el sayyohlarini ham o`ziga rom etmoqda. (4-5 rasmlar). Banday mahsulotlarni ishlab chiqarishda esa qo`l mehnatini zamonaviy innovatsiyalar bilan uyg`unlashtirgan holda olib borish hozirgi davr talabidir.



4-rasm. Kashtachilik san`ati



5-rasm. Kashtachilik san`ati

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizri, O`zbek milliy kashtalari xalqimiz tarixi, milliy mentalitetimiz bilan uzviy bog`liq bo`lib, yillar mobaynida otabobolarimizdan bizgacha yetib kelgan amaliy san`at turlaridan biridir. Shunday ekan, ming yillardan buyon avloddan-avlodga o`tib kelayotgan kashtachilik san`atini hozirgi o`sib kelayotgan yoshlarga o`rgatish va milliy an`analarimizni davom ettirish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Xalq turmushining har qanday sohasi kabi o`zbek milliy kashtachiligini o`rganish o`zbek xalqining etnik tarixi va ma`daniyati, uning boshqa xalqlar bilan o`zaro aloqalarni tatqiq etish bilan chambar-chas bog`liqdir. Asl aynimas, deyishganidek, sadoqat bilan yo`g`rilgan ana shu soflik borligi uchun bizning qadriyatlarimiz barhayot bo`lib kelgan va shundayligicha qolaveradi.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



Kashtachilik san`ati ish jarayoni

ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки Искусство Средней Азии.
2. Ходжаев С. Народное декоративное прикладное искусство Ўзбекистана. – Т. : Ўқитувчи, 1975 г.
3. I.Jabborov “Buyuk Xorazmshoxlar davlati” T., 1999.y.
4. Faxretdinova D.A. Dekorativnoe prikladnoe isskustva O`zbekistana. – T .: Fan, 1972.
5. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. – M.: Izd.MGU, 1948.
6. Bulatov L. O`zbek halq amaliy san`ati. – T. : Fan, 1991 y.